O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 27-11-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

223841 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, “Bahor” MFY, Mirzo Ulug'bek ko'chasi manzilidagi mavjud do'kon va omborxona obyektini yuridik hujjatga ega qismidan chiqmagan holda rekonstruksiya qilish	
Buyurtmachi:	SHAMSHILOV RAGIM ALISOVETOVICH
Bosh loyihachi:	"MUMTOZ-TOJ MAHAL" xususiy korxonasi
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Obyekt xo'jalik usulida barpo etiladi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	033409

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan, obyektni qayta ihtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga 21.02.2019-yilda berilgan 5915043/1-sonli Ruxsatnoma.

1.2. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 14.06.2024-yilda berilgan 1726-1726269-190482 –sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 01.02.2024-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. “PARTNERS PROJECT” MChJ tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan bino konstruksiyalarining texnik ko‘rigi.

1.5. “GEO-MIR” MChJ tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan ishchi loyiha hujjatini ishlab chiqish uchun muhandislik-geologik tadqiqodlar natijalari bo'yicha texnik hisobot.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xojaligi vazirligining qurilish Toshkent shahar bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 11 sentyabrdagi 93676737 -sonli xulosasi.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali 2024-yil 30 sentyabrdagi

01-02/14-2129-tartib raqamli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.8. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti ortasidagi loyiha-smeta ishlab chiqish uchun 2023-yil 25 dekabrdagi 13-sonli shartnoma.

1.9. “TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI” AJ tomonidan 2024-yil 26-iyulda berilgan 270/4-3291-sonli texnik shart.

1.10. “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoklari” MCHJ tomonidan 2024 yil 9-iyulda berilgan 05-1333-sonli texnik shartlar.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- Umumiy tushuntirish xati.
- Bosh reja.
- Arxitektura yechimlari.
- Konstruktiv yechimlar.
- Isitish va shamollatish tizimi.
- Suv ta'minoti va oqova suv ichki tizimi.
- Ichki elektr ta'minoti va ichki elektr yoritish.
- Yong'in signalizatsiyasi, yong'in haqida odamlarni xabarlash va evakuatsiyani boshqarish tizimi.
- Videokuzatuv tizimi.
- Obyektning energiyasamaradorlik pasporti.
- Issiqlik hisob-kitobi.
- Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.
- Bino konstruktsiyalarining hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining xususiyatlari.

Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 8 (sakkiz) ball.

Hisoblangan zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 8 (sakkiz) ball.

Shamolning me'yoriy og'irlik kuchi - 0,38 kPa.

Qorning me'yoriy og'irligi - 0,50 kPa.

Tuproqlar cho'kuvchanlik xususiyati ega bo'lib, II (ikkinchi) turga mansub.

Tuproqlar seysmiklik sharoitlari bo'yicha II-turga mansub.

Tadqiqotlar o'tkazilish davrida (2024 yil) yer osti suvlari yer yuzasidan 14,2 m chuqurlikda aniqlanmagan.

Tuproqlar portlandsementli betonlarga va temirbeton konstruksiyalarga nisbatan kuchsiz agressiv xususiyatga ega.

Geologik-litologik jihatdan hudud tepasidan qatlam qalinligi 1,3m bo’lgan uyma tuproqlar bilan tuldirilgan sariq tuproqsimon qumoq tuproqlardan va 14,2m chuqurlikda toshqotishma tuproqlardan tuzilgan.

Yerning muzlash qatlami chuqurligi - 0,7 m.

3.2. Bosh reja yechimlari.

“Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, “Bahor” MFY, Mirzo Ulug'bek ko'chasi manzilidagi mavjud do'kon va omborxona obyektini yuridik hujjatga ega qismidan chiqmagan holda rekonstruksiya qilish” qilinadigan obyekt Mirzo Ulug‘bek tumani, Mirzo Ulug‘bek hamda Temur Malik ko‘chalari kesishgan joyi manzilida joylashgan hamda quyidagicha chegaralangan:

Shimol tomondan – Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi bilan;

Janub tomondan – yakka tartibdagi turar-joy binolari bilan;

Sharq tomondan – ishlab chiqarish – tayyorlash hududi bilan;

G‘arb tomondan – Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi bilan chegaralangan.

Obyekt muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlangan. Loyiha hujjatlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish qismida obyekt atrofida igna bargli, manzarali daraxtlar va mavsumiy ko‘rkamlik darajasi bor bo‘lgan ko‘chat va gullar o‘tkazilishi inobatga olindi. Ko‘kalamzorlashtirish hududlarini ko‘k chimlar bilan qoplashga, landshaft arxitekturasiga e'tibor bergan holda ekilgan daraxtlarga shakl berilishi ko‘zda tutilgan. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil, 30 noyabrdagi "2030 yilgacha O‘zbekiston atrof muhitni saqlash kontseptsiyasi"ga asosan hamda Moratoriydan kelib chiqib ko‘p yillik daraxtlar saqlab qolinishi shart.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (loyiha bo‘yicha):

Loyihalanayotgan hudud maydoni - 830,0 m2

Qurilish maydoni - 421,0 m2

Yo‘l va yo‘laklar qoplamasi maydoni - 260,0 m2

Qurilish zichligi - 50,7%

3.3. Arxitekturaviy yechimlar.

Rekonstruksiyasi loyihalashtirilayotgan obyekt – “mavjud do'kon va omborxona” binosi 6 qavatli, yerto‘lali, noturar – joy binosi, rejada to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, o‘qlari bo‘yicha o‘lchamlari 15,00 m x 25,70 m, 0,000 otmetkadan tom tepasigacha-25,50 m. Bino qavatlarining balandligi: 1- qavatdan 6 qavatgacha 3,50 mdan (poldan orayepma plitagacha); yerto‘la qavati (polidan shiftgacha) balandligi-3,05 m. Vertikal evakuatsiya bitta ichki va bitta tashqi zinapoyalar hamda bitta lift orqali amalga oshiriladi.

Yerto‘la qavatida zinapoya katagi va tambur, lift shaxtasi, koridor, kiyinish xonasi, sanuzel va dush, yordamchi xona, sanuzel va 7 ta ombor;

1– qavatda – xoll 4 ta sanuzel, 5 ta xona, g'azna, kafe, yordamchi xona, zinapoya katagi va lift shaxtasi;

2- qavatda - zinapoya katagi, lift shaxtasi, koridor, sanuzel, yordamchi xona, 9 ta xona, 4 ta sanuzel va dush;

3- qavatda - zinapoya katagi, lift shaxtasi, koridor, sanuzel, yordamchi xona, 6 ta xona, 5 ta sanuzel va dush;

4- qavatda - zinapoya katagi, lift shaxtasi, koridor, sanuzel, yordamchi xona, 7 ta xona, 5 ta sanuzel va dush;

5- qavatda - zinapoya katagi, lift shaxtasi, koridor, sanuzel, yordamchi xona, 6 ta xona, 4 ta sanuzel va dush;

6- qavatda - zinapoya katagi, lift shaxtasi, koridor, post, 4 ta sanuzel, yordamchi xona, 6 ta xona, tambur va jihozlar xonasi.

Loyiha bo'yicha :

Eshiklar bloklari - plastik profilli, oynavand (steklopaket)li, MDFli.

Oyna bloklari - plastik profilli, oynavand (steklopaket)li.

Vitrajlar bloklari - plastik profilli, oynavand (steklopaket)li.

Binoning ichki pardozlanishi quydagicha loyihalangan:

Shiftlar – gipsokartonli osma shiftlar, shpatlyovkalash, songra suvli emulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash.

Devorlar va pardevorlar - shpatlyovkalash, songra suvli emulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash; sirlangan sopol plitka qoplamali.

Pollar – sirpanmaydigan sopol plitka qoplamali; laminatli.

Binoning tashqi pardozlanishida kuydagilar qullanilgan:

Sokol – sopol-granit plitka qoplamali.

Devorlar – issiqlik izolyatsiyasi bazalt tolali plitalar, o'zaklovchi shisha to'rlari, shpatlyovkalash, songra suvli fasad emulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash; kompozit panelli qoplamali.

Devorlar va parapet (6-qavat) – sendvich panellardan; kompozit panelli qoplamali.

Shamollatish panjaralari – metalli.

Tom – metall fermalar va progonlar bo‘yicha profnastil qoplamali.

Binoning hajmiy-rejaviy ko‘rsatkichlar (loyiha bo‘yicha)

Qurilish maydoni	- 356,10 m2
Binoning umumiy maydoni	- 1647,0 m2
shu jumladan yerto‘la umumiy maydoni:	- 319,30 m2
Qurilish hajmi	- 10077,60 m3
shu jumladan 0,000 otm.dan pasti	- 1175,10 m3
shu jumladan 0,000 otm.dan baland	- 8902,50 m3

3.4.Konstruktiv yechimlar.

Loyiha bo’yicha mavjud do'kon va omborxonaning to’rt qavatli va yerto’lali binosini rekonstruksiya qilish, quyma temirbeton konstruksiyali qo’shimcha 5-qavatini hamda yengil metall konstruksiyalardan qo’shimcha 6-qavatini barpo etish kozda tutilgan.

Binoning konstruktiv sxemasi - quyma temirbeton karkas.

Poydevor - qalinligi 400 mm bo‘lgan B22,5 sinfli quyma temirbeton plita.

Yerto’laning devorlari - B22,5 sinfli quyma temirbeton, qalinligi 400 mm.

Kolonnalar - 2 turdagi quyma temirbetonli. Binoning o‘rtasidagi yerto’la va 1-qavat kolonnalarining kesimi 600x400 mm, yuqori qavatlar kolonnalarining kesimi 400x400 mm. Binoning butun balandligi bo’yicha chekka kolonnalarining kesimi 400x400 mm, B22,5 sinfli

quyma temirbetonli.

Rigellar - 2 turdagi quyma temirbetonli. 7,2 m oraliqdagi yuk ko’taruvchi rigellarning kesimi 400x500 mm, qolgan yuk ko’taruvchi rigellarning kesimi 400x400 mm.

Barcha bog’lovchi rigellar va terilgan g’ishtlar ustiga o’rnatiluvchi rigellar (bog’lovchi belbog’lar) kesimi 400x400 mm, B22,5 sinfli quyma temirbetonli.

Orayopmalar - UTR 46.1-95.11 seriyali yig’ma temirbeton ko’p bo’shliqli plitalar.

Mansardali 6-qavat - metall karkasli.

Tashqi devorlar (1-4-qavatlar) – qalinligi 400mm bo’lgan, g’ishtli. Devorlar - M50 markali sement-qum qorishmasida terilgan M75 markali g’ishtlardan iborat bo’lib, har 4-7 qatorda Ø6 A-I bilan armaturalangan.

Mansarda tashqi devorlari - qalinligi 150mm bo’lgan sendvich panellari.

G’ishtli devorlar bo’yicha issiqlik saqlovchi ashyo (1-5-qavatlar) - qalinligi 50mm bazalt tolali plita, ɣ= 120kg/m3.

Zina - qalinligi 150 mm bo’lgan quyma temirbetonli.

Tom - metall konstruksiyalar bo’yicha ikki 11% nishabli, sendvich panellar bilan qoplangan.

Loyiha bo’yicha binoni texnik ko’rikdan o’tkazish va tekshirish hisob-kitobi yerto’lali 5 qavatli binoga bajarilgan bo’lib, quyidagi natijalar bilan izohlanadi:

- Ayrim konstruksiyalarning shikastlanish belgilari visual ko’zdan kechirish va o’lchov yordamida aniqlandi.
- Temirbeton konstruksiyalarning jismoniy eskirish belgilari 20-30% tashkil etadi.
- Tekshirish hisob-kitobi natijalariga ko’ra, konstruktiv sxemaning siljishi ruxsat etilgan chegaradan oshmaydi.
- Fundament plitasini kuchaytirish talab etiladi.
- kolonnalar va rigellarnihg armaturlanishi yetarli bo’lib, mustahkamlash talab etilmaydi.
- Asosning yuk ko’tarish qobiliyati ta’minlangan.
- 5-qavat sathida o’rtada joylashgan kolonnalarni va hamma rigellarni kuchaytirishni bajarish kerak.
- Tekshirish hisob-kitobi natijalariga ko’ra 4-qavat ustiga pastki qavatlar konstruksiyalari kabi qo’shimcha 5-qavatni qurish va metal konstruksiyalardan mansarda qavatini barpo etish ruxsat etiladi.
- Yuqori qavatlardagi pardevorlarni avtoklavli silikat bloklardan barpo etish (gazoblok).

3.5. Yong'inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong'inga chidamliylik darajasi – II-turga mansub.

Funksional yong'in xavfi sinfi – F3.4.

Binoning konstruktiv yong'in xavfi sinfi - C1.

Favqulotda chiqish eshiklari-yo'laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

3.6. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- tashqi devorlar - zichligi 120-140 kg/m3 GOST 9573-2012 bo'yicha PPJ rusumli mineral tolali plitalar, shisha tolali yacheka o'lchami 10X10 mm (160 g/m2) to'r, polimer to'rli 5-7mm qalinlikda asosiy suvoq qatlami, suvli fasad emulsiya bo'yoqlari bilan pardozlash;
- sokol - binoning sokol qismini zichligi 120-140 kg/m3 GOST 9573-2012 bo'yicha PPJ rusumli mineral tolali plitalari bilan qoplanadi;
- pol - birinchi qavat sopol plitkalari pol ostiga diametri 4mm temir armaturali qalinligi 50mm M-150 rusumli sement-qumli qorishma, 50mm qalinlikda “PENOPLEKS” rusumli ekstrudlangan penopolistirol, polietilen plyonka;
- derazalar - tashqi derazalar plastik romli bir kamerali ichki oynasi qattiq selektiv qoplamali oyna paketdan;
- eshiklar - tashqi eshiklar plastik romli bir kamerali ichki oynasi qattiq selektiv qoplamali oyna paketdan;
- ob'yektda jami quvvati 40,3 kWli 72 dona har biri 560Wlik quyosh panellarini, 1 dona gibrid invertorini o'rnatish loyihalangan.
- ob'yektda jami quvvati 15 kWli 3 dona har biri 5kWlik quyosh suv isitgich panellarini o'rnatish loyihalangan.

3.7. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Ob'yektning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori, ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan binoning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda 10 994 540,396 ming so'mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalanayotgan binoni, kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig'iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, isitish va shamollatish tizimi, suv ta'minoti va oqova suv ichki tizimi, elektr ta'minoti va elektr yoritish tizimi, yong'in signalizatsiyasi va yong'in haqida odamlarni xabarlash tizimi, video kuzatuv tizimi, lokal hisoblash tizimi bilan jihozlash ko'zda tutilgan.

Hududdagi tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-fevraldagi PQ-65-sonli qarori 4-bandi d qismiga asosan amalga oshirilsin.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-sonli qarori ta'lablariga rioya qilinsin. Ob'yekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xojaligi vazirligining qurilish Toshkent shahar bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 11 sentyabrdagi 93676737 -sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali 2024-yil 30 sentyabrdagi 01-02/14-2129-tartib raqamli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Loyiha hujjatlari “Sanoatgeotexnazorat” Davlat inspektsiyasi bilan o’rnatilgan tartibda kelishilishi lozim.

5.4. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **10 994 540 396** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
46 128 494 so'mga kamaytirilib, **10 948 411 902** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **9 218 900 666** so'm
Asbob-uskunalar: **556 467 104** so'm
QQS: **1 173 044 132** so'm

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi va smeta xarajatlari ko'rib chiqildi.

6.2. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspetiza tomonidan berilgan. Kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.3. Ekspertiza natijaralariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz **10 994 540 396** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **46 128 494** so'mga kamaytirilib, **10 948 411 902** so'mni tashkil etadi. Xususan:

- Qurilish-montaj ishlari: **9 218 900 666** so'm;
- Asbob-uskunalar: **556 467 104** so'm;
- QQS: **1 173 044 132** so'm.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023-yildagi PF-199-sonli farmoniga amal qilinsin.

6.5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 26-dekabrdagi "Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini myhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1050-son hamda 1998 yil 15-maydagi 210-sonli warorlariga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin.

6.7. Shartnoma bo‘yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to'liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.10. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-sonli qarori talablariga rioya etilsin.

6.11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga qat`iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli Qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan Shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan Loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda toyiha tashkiloti javobgardir.

6.13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.14. QMQ 2.04.02-19 “Suv taminoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” talablariga to'liq rioya etilsin.

6.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldani PQ-266-sonli va SHNQ 2.07.02-22 hamda SHNQ 2.08.07-22 talablariga to‘liq amal qilinsin.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, “Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, “Bahor” MFY, Mirzo Ulug'bek ko'chasi manzilidagi mavjud do'kon va omborxona obyektini yuridik hujjatga ega qismidan chiqmagan holda rekonstruksiya qilish” ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va

kelishishga tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) hisoblaganda **10 948 411,902** ming so’mni tashkil etadi

Bosh ekspert: Adilov Mansur Sabirovich.
Ishtirokchi ekspertlar: Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Yermakova Olga Yevgenevna, Kurpelyanskaya Irina Borisovna, Adjigafarova Remziye Ablyayevna, Sadikova Raxima Salixovna, Yuldasheva Nigora Ilxamovna, Nurmetov Timur Kurambayevich, Adilov Mansur Sabirovich